

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN KUTUBXONASHUNOSLIK ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Kutubxonashunoslik asoslari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Kutubxonashunoslik asoslari

- 1.Kutubxonashunoslik fanining umumnazariy masalalari;
- 2.Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishning tashkil qilinishi;
- 3.Kitobxonlar bilan ishlash metodikasi va adabiyotlar targ‘iboti masalasi;
- 4.Axborot-kutubxona muassasalari faoliyati;
- 5.Kitobshunoslik va kitob tarixi;
- 6.Bolalar kitobxonligini o‘rganishning pedagogik va psixologik asoslari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Kutubxonashunoslik fanining umumnazariy masalalari	Aholi o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy bilimlarini yanada mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish, kutubxonashunoslik, axborot-kutubxona faoliyati sohasi uchun asosiy ilmiy-nazariy masalalar, umumiy tamoyillar, qonuniyatlar, metodologik asoslar, sohaning istiqbollari, jamiyatni axborotlashtirish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	35 %	14 ta
2	Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning tashkil qilinishi	Kitobxonlarning ommabopligi mamlakatda kutubxonachilik ishini tashkil etish. Kutubxonalardan foydalanishning bepulligi, kutubxona filiallarini aholiga yaqinlashtirish, kitob targ'iboti va aholiga xizmat ko'rsatishda faol shakl va metodlarni qo'llash, kitobxonlar uchun qulayliklar yaratish kutubxonalarning hammabopligini oshirish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	7,5 %	3 ta
3	Kitobxonlar bilan ishlash metodikasi va adabiyotlar targ'iboti masalasi	Axborot-kutubxonalarda kitobxonlar qiziqishini o'rganish, ularning o'qishiga rahbarlik qilish. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning statistik metod, kuzatish metodi, suhbat metodi, anketa va intervyu metodlari, eksperiment metodlari. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning maxsus metodi, kutubxonalarning o'ziga xos xususiyatiga qarab, ma'lumotlarni hisobga olish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	20 %	8 ta
4	Axborot-kutubxona muassasalari faoliyati	Axborot-kutubxona muassasalari faoliyati kutubxonada universal fondlarning qamrab olish kengligi va xronologik chuqurligi tadqiqotchilik faoliyatini olib borish, foydalanuvchilarning turli axborotlarga bo'lgan talablarini qondirish uchun shart-sharoitlarni yaratish. AKMLar kitob fondi boyitish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	12,5 %	5 ta

5	Kitobshunoslik va kitob tarixi	Aholi o'rtasida kitobshunoslik va kitob tarixi bo'yicha bilimlarni oshirish, kitob va kitob madaniyati tarixini chuqur o'rganish, turli davrlar va mamlakatlardagi kitob yaratish, nashr va tarqatish jarayonlarini tahlil qilish, kitobning shakl, mazmun va funksiyalarini aniqlash, yoshlarning tarixiy va madaniy bilimlarini boyitish, ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish, kitobga bo'lgan qiziqish va e'tiborni oshirishda innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, kutubxonashunoslik va kitob tarixi sohasi uchun asosiy nazariy va amaliy masalalar, qonuniyatlar, metodologik asoslar, sohaga oid istiqbollar hamda jamiyatning madaniy va axborot maydonini boyitish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	12,5 %	5 ta
6	Bolalar kitobxonligini o'rganishning pedagogik va psixologik asoslari	Bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, o'quv faoliyati va madaniy didini shakllantirish, yoshlarning aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini hisobga olgan holda kitob mutolaasi ko'nikmalarini mustahkamlash, kitobni tushunish va baholash qobiliyatlarini oshirish, pedagogik va psixologik yondashuvlar, metodik va innovatsion usullardan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish, bolalar kitobxonligini o'rganish bo'yicha nazariy va amaliy masalalar, yosh xususiyatlari va rivojlanish bosqichlariga mos metodlar, kitob tanlash, kitobxonlikni rag'batlantirish va kitob bilan ishlash strategiyalari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	12,5 %	5 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	27,5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	27,5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	45 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi/ Erkin Axunjanov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.- T.: Tafakkur bo'stoni, 2011 yil

2. Yo'ldoshev E. Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish: O'rta maxsus o'quv yurtlari kutubxonachilik bo'limi talabalari uchun o'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston, 2002

3. Xakimova M.Y., Mannonov Y.O., Mavlyanov K.G' Kutubxonashunoslik/O'quv qo'llanma. - T.: Premium poligraf biznes MCHJ. - 2024